

TERMINOLOGIK TADQIQOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Kaxarova Muxabbat

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Pedagogika
psixologiya va tillar kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada terminologiya sohasiga oid ma'lumot berilgan bo'lib, bunda asosan tarixan kirib kelishi, o'rganilishi, rivojlanishi va terminologiya fanining turli xil sohalarda qo'llanilishi berilgan.*

Kalit so'zlar: *Terminologiya, leksika, baynalminal atamalar, chet tillari, tilshunoslik, maxsus leksika.*

Terminologiya lug'aviy nominatsiya sohasida olib boriladigan tadqiqotlar nazariyasi va amaliyotida eng muhim masalalar sirasiga kiradi. Termin va, umuman, terminologiyaning mohiyati, terminlarning yasalishi, tarkibiy tuzilishi, tasnifi, ularning noterminlarga munosabati masalasini o'rganishga bo'lgan qiziqishning kundan-kunga ortib borayotgani shundan. Buning ustiga, tilning nominativ funksiyasi mexanizimini tushunish terminologiyani jiddiy va izchil o'rganishni talab qiladi. Termin tadqiqi bizning so'z, so'z brikmasi va gap singari nominativ birliklar haqidagi tasavvurmizni boyitadi, so'z tuzilishining lug'aviy hamda mantiqiy asoslarni teranroq idrok etishga imkon beradi.

Ma'lumki, termin bilan notermin (so'z, so'z brikmasi va sh .k.)ni o'zaro farqlash juda qiyin kechadigan jarayondir. Chunki umumtilda amal qiladigan barcha so'z va so'z brikmasi ayni paytda tegishli sohalarning terminlari hamdir. Bunga ishonch hosil qilish uchun terminga berilgan ta'riflardan ayrim namunalar keltiramiz:

Terminga berilgan yana bir ta'rifni keltiraylik: "К лексике терминологической относятся слова или словосочетания, используемые для логически точного определения специальных понятий или предметов какой-либо области науки, техники, сельского хозяйства, искусства и т.д."

Bu ta'riflarga munosabat bildirishdan oldin o'zbek tilidagi manbalardan biriga murojaat etaylik: Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z brikmasi; atama

Ruscha сочетание слов va словосочетание istilohlari o'zbek tiliga so'z birikmasi tarzida tarjima qilingan. Bu- birinchidan.

Ikkinchidan, yuqorida keltirilgan ruscha ta'riflarda terminologiya va nomenklatura o'zaro farqlanmagan. Termin va nomen orasidagi asosiy farq shundaki, termin umumiy tushunchani, nomen esa yakka tushunchani ifodalaydi. Shu munosabat bilan quyidagi iqtibosni keltiramiz: "В рамках номенклатуры под номеном понимается обозначение единого понятия. Номены обозначают конкретные денотаты в рамках специализированного номинативного поля, и в этом случае

они рассматриваются как разновидности терминов, однако существует и другой подход, при котором номенклатура интерпретируется как продукт не научной, а обыденно-когнитивной номинации”.

Uchinchidan, soʻz narsa va hodisalarning umumiy nomi boʻlsa, soʻz birikmasi ularning konkretlashgan nomidir (daraxt-olma daraxti; olma - qizil olma, ot-saman ot kabi).

Toʻrtinchidan, soʻz yoki soʻz birikmasini termin, termini soʻz yoki soʻz birikmasi deyish, tan olish kerak, fanga chalkashliklardan boshqa narsa olib kelgani yoʻq. Termin soʻzmi yoki soʻz birikmasi, degan savolga javob berar ekan, prof. V.G.Gak, unisi ham, bunisi ham emas, termin-funksiya, lugʻaviy birlik qoʻllanishining bir koʻrinishi, deb yozadi. Uning fikricha; “Термином может стать любая ЛЕ (лексическая единица), обладающая двумя свойствами: способностью означать нечто и занимать определенное место в ряду понятий”.

Beshinchidan, soʻz birikmasi haqidagi taʼlimotga nisbatan jiddiy va xolis munosabatda boʻlish, V.V.Vinogradovning bu boradagi fikrlari taʼsiridan chiqish, narsa va hodisani qanday boʻlsa, shunday oʻrganish taniqli tilshunos olim, SamQXI dotsent Tohir Xoʻjayevning 1976-yilda “Soʻz birikmasi haqida” nomi bilan eʼlon qilingan fundamental maqolasini oʻqish va uqish, unda bildirilgan mulohazalarga obyektiv baho berish vaqti yetdi.

Ushbu maqola mavzusiga doir ilmiy adabiyotlar bilan tanishish, terminologik tadqiqotlar, asosan, quyidagi yoʻnalishlarda olib borilganligini koʻrsatadi.

Terminologiyaning fan sifatida shakllanishi avstriyalik Oygen Vyuster Nubasov va rossiyalik Dmitriy Semyonovich Lote nomlari bilan bogʻliq. Ular oʻtgan asrning 30-yillaridayoq terminologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar. Bu nazariyalar keyinchalik bir qator milliy maktablarning (jumladan, Fransiya-Kanada, Avstriya-Germaniya, Chexiya va Rossiya kabi) yuzaga kelishida poydevor vazifasini oʻtadi. A.A.Reformatskiy, B.N.Golovin, L.A.Kapanadze va boshqalar termin mazmuni xususiyatlarini, A.S.Gerd termin va nomenlarning sinxron va diaxron aspektlarda namoyon boʻladigan oʻzaro munosabatini, M.V.Oganesyanyan, O.V.Dovbish va boshqalar termin tarjimasini bilan bogʻliq masalalarni oʻrganganlar.

O.V.Aleksandrova, L.Y.Buyanova, M.N.Volodina, S.V.Grinev, I.A.Gromova kabi tilshunoslar termin tabiati va mohiyatini funksional-nominativ nuqtayi nazardan oʻrganishning kognetiv-onomasiologik va kognetiv-semasiologik metodlarini ishlab chiqqanlar. Qator tadqiqotlarda [masalan, qarang: Arnold 1986, Zyatkovskaya 1971] murakkab tarkibli terminlar [masalan, qarang: Golovin 1981, Urazboyev 1985, Kobrin 1989] oʻrganilgan [qarang: Petrosyanes 2004,12-14].

Rus, ingliz, nemis, fransuz tillari materiallari asosida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, sotsiologik, yuridik, qishloq xoʻjaligi, formotsevtika, kasb-hunar, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi sohalarga doir terminlar oʻrganilgan. Bu sohada Oʻzbekistonda ham jiddiy tadqiqotlar olib borilgan [O.Usmonov, U.Tursunov, S.Ibrohimov, R.Doniyorov, H.Dadaboyev, N.Mahmudov, A.Madvaliyev, Y.Ibrohimov, N.Mahkamov,

A.Sobirov, X.Jabborov va b.]. Hozirgi paytda terminologiyaning quyidagi turlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

1. Nazariy terminologiya terminlarning qo'llanishi va taraqqiyoti qonun-qoidalarini ishlab chiqadi.

2. Amaliy (prikladnoye) terminologiya terminlarni tavsiflash, tartibga solish, me'yorlashtirish, tarjima qilish ishlari bilan shug'ullanadi.

3. Umumiy terminologiya terminlarning umumiy xususiyatlarini, yuzaga kelishi, tarkib topishi, qo'llanishi bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

4. Xususiy yoki sohaviy terminologiya alohida olingan bir tilning terminlarini tahlil qiladi. Terminologiyaning bu turi O'zbekistonda ancha rivojlangan.

5. Tipologik terminologiya terminlarni bir yoki va bir necha til doirasida qiyoslab o'rganadi. Bunday tadqiqotlar ko'lami juda tor.

6. Semasiologik terminologiya terminlar semantikasi, ma'no o'zgarishi, polisemiya, omonimiya, sinonimiya kabilar bilan munosabatini o'rganadi.

7. Onomasiologik terminologiya terminlarning yasalishi, tarkibi, ularning muqobil variantini tanlash ishlarini olib boradi.

8. Tarixiy terminologiya terminlar kelib chiqishining lisoniy va g'ayrilisoniy omillarini o'rganadi. Soha mutaxassislari antrolovingvistikaning paydo bo'lishini tarixiy terminologiya bilan bog'laydilar.

9. Funksional terminologiya terminlarning nutqda qo'llanishi, kompyuter tizimida tutgan o'rnini o'rganadi.

10. Kognitiv (yoki gnoseologik) terminologiya terminlarning inson tafakkuridagi o'rnini belgilash bilan shug'ullanadi.

Yuqorida bayon qilinganlar terminologiyaning o'ziga xos fan sifatida allaqachon shakllanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, unda o'zining aniq va xolis yechimini kutayotgan muammolar ham yo'q emas. Bular, bizningcha, quyidagilardir:

- terminning so'z, so'z birikmasi yoki funksiya ekanligi haqida bildirilgan fikrlarni har tamonlama tahlil qilish va tegishli xulosaga kelish;

- madomiki, termin so'z birikmasi shaklida ham namoyon bo'lar ekan, so'z birikmasi terminining o'zini chuqur o'rganish, V.V.Vinogradovning fikrlari biryoqlama va mantiqan puch ta'rif ekanligini isbotlash, ta'siridan chiqish, u haqdagi yangi va asosli fikrlarga (Xo'jayev, Beloshapkova, V.Y.Plotkin) munosabat bildirish;

- termin va nomen, terminologiya va nomenklaturaning o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash bilan bog'liq tadqiqotlarni davom ettirish;

- termin mohiyatini tushunish bilan bevosita bog'liq predtermin, terminoid, prototermin kabi tushunchalarni keng va atroflicha ta'riflash:

- termin bilan sohaviy (maxsus, xususiy) leksikaning aynan bir tushunchani ifodalovchi ma'nodosh terminlar ekanligini e'tirof etish va terminlarni qo'llashda sinonimlarning bo'lishi noxush ekanligi tamoyilidan kelib chiqib, ularning birinчисini (bizningcha, termini) izchil qo'llashga erishish;

- ikki va ko'p tilli terminologik lug'atlar yaratish ishlarini davom ettirish:

- qiyosiy terminologik tadqiqotlarni keng ko'lamlarda olib borish:
 - milliy terminologiyani yaratish. Chet terminlarni o'zlashtirishda o'zbek tili qonun-qoidalariga og'ishmay amal qilish;
 - terminologiyaning ilm-fan va ta'limda tutgan ahamiyatini hisobga olib, oliy o'quv yurtlarining barcha fakultet va bo'limlarida "Terminologiya asoslari" fanini o'quv rejasiga kiritish:
 - unutilgan terminlarni izlab topish, ularning davrga hamohanglarini tanlab muomalaga olib kirish, buning uchun mumtoz ilmiy asarlar tili va terminologiyasini o'rganishni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Bunda xalqimizga xos bag'rikenglik ustuvor tamoyil sifatida qabul qilinmog'i lozim;
 - va nihoyat: terminologiya nominatsiyaning muhim tarkibiy qismi.
- Nominatsiya nazariyasi esa prof.V.G.Gak tomonidan chuqur ishlab chiqilgan. Binobarin, terminologiya masalalari bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan har qanday tadqiqotchi bu nazariyani nafaqat bilishi, balki uning tamoyillaridan ijodiy foydalana bilmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2000.
2. Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. – T.: O'qituvchi, 2003.
3. Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi va imlosi. INTERNETdagi manzili: www.samdu.uz/files/web/index.htm
4. Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik. Uslubiy qo'llanma. Tuzuvchi: Boltayev M. – Samarqand: SamDU, 2007.
5. Mahmudov N. va bosh. Ish yuritish asoslari. – Toshkent: O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
6. Sanaqulov U., Abdiyev M., Qurbonov A. O'zbek tilida ish yuritish asoslari.- Samarqand, 2014.
7. Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. Ахборот. 11 – 12-чиқарув. – Тошкент: Фан, 1996.
8. Давлат тилида иш юритиш, хужжатчилик ва атамашуносликдан ўқув иш дастури. – Самарқанд: СамДУ, 1998.
9. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977.
10. Абдиев М. Соҳавий терминологиянинг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004.
11. Мадвалиев А. Ўзбек тили терминологияси ва лексикографияси масалалари.-Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2017.

12. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. O'zbek tilining imlo lug'ati. Tuzuvchilar – Hojiyev A., Rahmatullayev Sh. – T.: O'qituvchi, 1996, 6-27-betlar.
13. Имомова Т.З., Тухватуллина Л.А. Иш қоғозлари қандай ёзилади? – Тошкент, 1992.
14. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2015.
15. To'xliyev N. Ish yuritish. – Toshkent, 2017.
16. Abdiyev M., Umarov Y. Ish yuritish. – Samarqand, 2018.
17. Мадвалиев А., Маҳкамов Н. Ўзбек тилида иш юритиш атамаларини тартибга солиш ҳақида // Ўзбек тили атамашунослиги. Ахборот. 5 – 6-чиқарув. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.40-43
18. Садинова Н. Иш юритиш терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 2019.
19. Лутфуллаева Д. Мустақиллик даври расмий-идоравий иш услубининг тараққиёти. – Тошкент, 2020.
20. Бухарова, Н. Г., & Файзуллаев, С. И. У. (2021). ДИСКУРС-АНАЛИЗ КАК СРЕДСТВО ВОСПРИЯТИЯ УСТНОЙ РЕЧИ. Вестник науки и образования, (2-3 (105)), 17-19.
21. Fayzullayev Sarvar, & G'afforova Saidaxon. (2023). OLIY O'QUV YURTLARI TALABALARIGA XORIJIY TILLARNI O'QITISH METODIKASI VA MEDIATEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 551-553. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/8689>
22. Fayzullayev, S. (2023). MECHANISM OF INTEGRATED TEACHING OF SPEECH COMPETENCE IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES IN MEDICINE.
23. Fayzullayev, S. (2023). INGLIZ TILIDA TIBBIYOT TERMINOLOGIYASINING TUTGAN O'RNI. Scientific Impulse, 1(10), 364-367.
24. Sarvar Fayzullayev. (2023). INGLIZ TILIDA TIBBIYOT TERMINOLOGIYASINING TUTGAN O'RNI. Scientific Impulse, 1(10), 364-367. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/9230>
25. Fayzullayev Sarvar. (2023). OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM METODLARINING QO'LLANILISHI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(14), 402-406. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/11998>
26. Sarvar, F. (2022). Mechanism of integrated teaching of speech competence in Uzbek and English languages in medicine Tashkent Medical Academy.
27. Sarvar, F. (2022). Mechanism of integrated teaching of speech competence in Uzbek and English languages in medicine Tashkent Medical Academy. Global Scientific Review, 10, 188-191.
28. Fayzullayev, S. (2023). INGLIZ TILIDA TIBBIYOT TERMINOLOGIYASINING TUTGAN O'RNI. Scientific Impulse, 1(10), 364-367.

29. Fayzullaev, S. (2023). Improving the methodology of teaching foreign languages based on the competence approach in the higher medical education system. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 697-700.

30. Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li, (2023). TIBBIYOTDA O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA NUTQIY KOMPETENTSIYASINI INTEGRATSION O'QITISH MEKANIZMI.

31. Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li, F. S. (2023). TIBBIYOTDA TALABALARNING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA NUTQIY KOMPETENTSIYASINI INTEGRATSION O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH.

32. Israilova, I., Gulfura, T., Patima, T., Gulbakhor, M., & Sarvar, F. (2021). Medical english learning through authentic movies: extra-linguistic factors contributing to the study of medical terminology. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.5 Pedagogical sciences).